

TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO'LINING AHAMIYATI

Yursinova Guljahon

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Tarix 101-guruh talabasi.

Ergasheva Maftuna

Andijon davlat pedagogika instituti

Professor dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18709459>

Annotatsiya. Temuriylar davrida Buyuk ipak yo'lining ijtimoiy-tarixiy hamda siyosiy ahamiyati shunigdek, mazkur sulola davrida savdo-sotiq ishlari borasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar, savdo-sotiq, Buyuk ipak yo'li, pul, Samarqand, karvonsaroy, pul siyosati.

Аннотация. Социально-историческое и политическое значение Великого шелкового пути в период Тимуридов, а также содержание реформ, проведенных в сфере торговли во время этой династии.

Ключевые слова: Темуриды, торговля, Великий шелковый путь, деньги, Самарканд, караван-сарай, денежная политика.

Annotation. The socio-historical and political significance of the Great Silk Road during the Timurid period, as well as the content of the reforms carried out in the field of trade during this dynasty.

Keywords: Temurids, trade, the Great Silk Road, money, Samarkand, caravanserai, monetary policy.

Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududi Amir Temur va temuriylar davrida xalqaro savdo va madaniy aloqalarda muhim o'rin tutganligi ma'lum. Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni o'z qo'liga olgach, markazlashgan hokimiyat tuzishga, xalqaro karvon yo'llari xavfsizligini to'liq ta'minlashga erishdi.

Shu tufayli ham XIV asrning 70-yillaridan boshlab Buyuk ipak yo'lining Movarounnahr orqali o'tgan markaziy tarmog'i shimoliy yo'nalishiga qaraganda xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda muhim o'rin tuta boshladi. Movarounnahr bo'ylab xalqaro savdo karvonlari harakatining qaytadan jonlanishi shaharlar taraqqiyotiga, iqtisodiy-madaniy aloqalarning yuksalishiga olib keldi.

Amir Temur nafaqat o'z davlati doirasidagi ichki savdo ishlarini, balki xalqaro savdo aloqalarni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur ekanligini yaxshi anglagan edi. Shuning uchun ham sohibqiron avvalo, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlab, ularda karvonsaroylar barpo etish ishlariga alohida e'tibor berdi.

Amir Temurni Xitoy xoqoni Taytszuga yo'llagan maktubida "Karvonsaroylararo yo'llar ochildi, yo'llardagi qaroqchilar yo'q qilindi, uzoq yurtlarga boruvchilar o'zlarini xotirjam etadigan bo'ldi", deb ta'kidlab o'tilgan. Shu bilan birga Amir Temur Vizantiya, Venetsiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya kabi Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi [1].

Bu davrda mamlakat poytaxti Samarqandni Movarounnahr va Xurosonning yirik shaharlari bilan bog'lovchi yo'llar mintaqadagi ichki savdo yo'llari tizimining bosh bo'g'inini tashkil etardi. Samarqand go'zalligi, savdo va hunarmandchilik juda ham rivoj topganligi bois ispan qiroli elchisi Klavixoni hayratda qoldirgan edi.

Bu shaharda oldi-sotti uchun qulay maxsus savdo rastasining mavjud emasligi tufayli, sohibqiron shahar bo'ylab katta ko'cha soldirishni, uning ikki tomonida mol sotish uchun rasta va do'konlar qurishni buyurdi. Bunday katta qurilishni yigirma kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani shubhasiz kishini hayratga soladi, deb hikoya qilgan edi Klavixox [2].

Ispan elchisi tashqi savdoda ham Samarqandning katta o'rin tutganini alohida qayd qiladi. O'sha davr muarrixi Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet el mamlakatlaridan, xususan Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoy atlas, yashin toshi, mushk va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush, Rus, tataristondan charm va surup olib kelinardi [3].

Amir Temur va temuriylar davrida muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega yo'nalishlarga Xurosondagi temuriylar davlati poytaxti Hirotni Movarounnahrning yirik shaharlari bilan bog'lovchi aloqa yo'llarini ham kiritish mumkin. Ular ichida Hirot dan Marv orqali Buxoro va Urganchga hamda Balx orqali Samarqandga olib keluvchi yo'llar mintaqaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy va siyosiy hayotida katta o'rin tutardi. XV asrda temuriylar davlatining amalda ikkita poytaxti bo'lib qolgan Samarqand va Hirot shaharlarini saltanatning shimoliy qismlari, xususan, Xorazm vohasi bilan bog'lovchi yo'llar ham bu davrda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Temuriy hukmdorlarning Oltin O'rda bilan bo'lgan aloqalarida asosiy tranzit hudud hisoblangan Xorazmning bosh shahri Urganchdan Xirotga asosan Murg'ob vohasi orqali o'tilgan. Urganch va Xorazmning boshqa shaharlaridan janubga ketgan yo'l Marv shahrida tutashgan [4].

Markaziy Osiyo mintaqasining muhim savdo yo'llari kesishgan chorraxasida joylashgan Jizzax vohasi ham bu davrda alohida ahamiyat kasb etgan bo'lib, bu o'lkada Farg'ona vodiysi va Xo'janddan O'ratepa orqali keluvchi karvon yo'li Toshkentdan Mirzacho'l orqali kelgan yo'lga qo'shilib, bu yerdan Samarqandga va Nurota tog'ining shimolidagi tekislik bo'ylab Nurotaga boruvchi yo'l boshlanardi. Jizzaxdan Samarqandga asosiy yo'l Ilono'tdi darasi orqali o'tilgani ma'lum va bu daraning ahamiyati nihoyatda katta edi [5].

Movarounnahrning-savdo bandargohi Samarqandni Xitoy va boshqa sharqiy o'lkalar bilan bog'lovchi karvonlar deyarli barcha hollarda Dizak (Jizzax) orqali quyidagi yo'nalishlar– Samarqand – Dizak – Choch - Sharqiy Turkiston-Xitoy; Samarqand – Dizak – Xovos - Farg'ona - Xitoy; Samarqand – Dizak – Zomin – Sabat - Farg'ona - Xitoy yo'nalishlari bo'yicha o'tgan [6].

Amir Temur va temuriylar davrida Yevropa va Osiyoning ko'pgina davlatlari bilan xalqaro aloqalar olib borildi. Xususan, poytaxt Samarqandni janubda Hindiston, Xuroson, Eron, Iroq, Misr, shimoli-g'arbda Oltin O'rda shaharlari, sharqda Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan bog'lovchi muhim xalqaro yo'llar alohida ahamiyatga ega edi. Ta'bir joiz bo'lsa, «Amir Temur davrida barcha yo'llar Samarqandga olib borar edi» [7].

Amir Temur va temuriylar davrida Xitoy bilan ham aloqalar ancha faol bo'lganligini aytib o'tish lozim. Amir Temur 1389-yilda Mo'g'ulistonga yurish qilib bu yerni bo'ysundiradi va Movarounnahrda Mo'guliston tomonidan bo'ladigan xavfni bartaraf qiladi. Shundan keyin Mo'guliston va Sharqiy Turkiston orqali o'tuvchi karvon yo'li xavfsizligini ta'minlash, Xitoy bilan savdo-elchilik aloqalarini tiklash imkoniyati paydo bo'ldi. XIV asrga oid Xitoy manbasi bo'lgan "Min shu li"da bu haqda muhim ma'lumotlar mavjud. Xususan, 1389-1398-yillarda Amir Temur nomidan Xitoyga 9 marta elchilar kelganligi, Xitoydan ham 1395-yilda Fu An boshchiligidagi Samarqandga elchilar yuborilganligi qayd etilgan [7].

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida ham Xitoy bilan aloqalar davom etdi.

Bu davr yozma manbalarida 1409- va 1420-yillarda Hirotga Xitoy elchilari kelgani, o'z navbatida, temuriy hukmdorlar ham Xitoyga bir necha marta o'z elchilarini yuborgani ma'lum.

Jumladan: 1418-yilda Ardasher boshliq Shohruh elchilari Xitoyda bo'ladilar. 1419-yilda bunga javoban Li-Do va Jong-Fu Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar. 1420-yilda Shohruh va Ulug'bek 530 nafardan iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'nata dilar [6].

Bu ma'lumotlarni tahlil qilsak, mintaqamizni Xitoy bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'lining muhim tarmog'i bo'lgan savdo yo'llari, asosan, Movarounnahrning markazidan Farg'ona va Yettisuv orqali Sharqiy Turkistonga, bu yerdagi savdo shaharlari orqali Xitoy poytaxti Pekinga olib borganini ko'ramiz.

Movarounnahrda Xitoyga o'sha zamonlarda ikki karvon yo'li orqali borilgan. Birinchi yo'l Toshkent, Sayram, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning Turfan va Qumul shaharlari orqali, ikkinchi yo'l esa, Farg'ona vodiysi orqali- Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon va O'sh orqali Oloy vodiysi bo'ylab borgan va Sharqiy Turkistonning Koshg'ar, Xo'tan va Yorkand shaharlari orqali o'tgan [4].

Demak, XV asrning birinchi choragida Shohruh va Ulug'bek davlatlari bilan Xitoy o'rtasida muntazam ravishda elchilar almashib turiladi. Har ikkala davlat o'rtasidagi savdo va elchilik aloqalari bu davrda yanada rivoj topadi. Deyarli har ikki-uch yilda Samarqand va Hirotga Xitoy elchilari, Xonbaliqqa (Pekinga) esa Movarounnahr va Xuroson elchilari va savdogarlari qatnab turishgan.

Shohruh bilan Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatiladi. 1421-yilda Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. 1441-1442-yillarda Shohruh Hindistonga Bijanagar saroyiga tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligida elchilar yuboradi. U Karmon, Ormuz va Fors qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi [6].

Yozma manbalarda, xususan, mashhur "Boburnoma" asarida Hindistondan Kobul va Qandahor orqali O'rta Osiyoga o'tuvchi tog' dovonlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Unga ko'ra Qashqar, Farg'ona, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan Kobulga Hindikush tog'laridagi 7 ta ko'tal (dovon, tog' yo'li) orqali o'tilgan [5]

Amir Temur va temuriylar davrida Oltin O'rda shaharlari bilan aloqalar mavjud bo'lib, ular ikki yo'nalishda; Xorazm vohasi yoki Janubiy Qozog'istondagi shaharlar (Turkiston, Sayram) orqali amalga oshirilgan. Bu bilan O'rta Osiyo xalqlarining Sharqiy Yevropa xalqlari bilan bo'lgan qadimiy aloqalari yana jonlandi. XV asrdan boshlab, Moskva knyazligining mavqeyi kuchaya boshlagach, Rus knyazlari temuriy hukmdorlar bilan elchilik munosabatlari o'rnatishga intila boshlaydi. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy (XV asr) Hirot hukmdori Abusaid Mirzo huzuriga 1464-yilda rus podshosi Ivan III elchilari kelganligi to'g'risida yozib qoldirgan bo'lsa, 1490-yilda Moskvaga Sulton Husayn Boyqaro elchilari borganligi ma'lum [3].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Amir Temur va Temuriylar davri Buyuk ipak yo'li faoliyatining so'nggi va rivojlangan bosqichi bo'ldi. Savdo yo'llarida xavfsizlikning ta'minlanishi, savdo-sotiqning davlat tomonidan rag'batlantirilishi, shaharlarning markazlar sifatidagi ahamiyati oshishi ichki va tashqi iqtisodiy- madaniy aloqalar rivojiga olib keldi. Bu yo'lining mamlakatimiz hududi orqali o'tgan markaziy yo'nalishlarining faoliyati yanada rivojlandi. Bu davrda Buyuk ipak yo'lining Oltin O'rda davlati tarkibida bo'lgan Dashti Qipchoq yerlari orqali o'tgan shimoliy yo'nalishlari o'z ahamiyatini yo'qota bordi, Movarounnahr va Xuroson shaharlari esa Buyuk ipak yo'lining markaziy yo'nalishlari bo'ylab xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda katta rol o'ynay boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agzamova G.A. "Savdo yo'llari // Temur va Ulug'bek davri tarixi". Mualliflar jamoasi. Toshkent. 2016.
2. Bobur Z.M. "Boburnoma". Toshkent. 2019.
3. Mavlonov O'. "Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari". Toshkent. 2008.
4. Mo'minov I. "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". yozma manbalar ma'lumoti asosida. ikkinchi nashr. Toshkent. 2023.
5. Muhammadjonov A. "O'zbekiston tarixi". Toshkent. 2020.
6. Pardayev M. "Buyuk ipak yo'li yoqasidagi "Dizak" shahri o'rni xususida"// Buyuk ipak yo'li yoqasidagi Markaziy Osiyo shaharlari. Samarqand.2014.
7. Xo'jayev A. "Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar". Toshkent. 2017.